
O'QUVCHILARGA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Asamova Sabrina Xamidovna ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Toshkent ISFT instituti M-24 pedagogika -01 magistranti

E-MAIL: sabrinaasamova73@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.02.2025

Revised: 17.02.2025

Accepted: 18.02.2025

Yangi pedagogik metodlar o'quvchilarning faolligini, ijodkorligini va mustaqil fikrlashini oshirishga yordam beradi. Ushbu ilmiy maqolada o'quvchilarga "Tarbiya" fanini o'qitishda innovatsion yondashuv haqida ma'lumotlar berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Tarbiya, ahloqiy qarashlar, interaktiv ta'lif, kompyuter texnologiyalari, internet va multimedia resurslari, ijodkorlik, jamoa bilan ishlash, videodarslar, onlayn kurslar, virtual sayohat.

KIRISH. Tarbiya har bir jamiyatning asosi va kelajagini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lif tizimidagi tub islohotlar tarbiya jarayonini ham zamonaviylashtirish, unga innovatsion yondashuvlarni joriy qilishni talab qilmoqda. Bu jarayonda nafaqat o'quvchilarning bilim olishi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ahloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligini shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada "Tarbiya" fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning zaruriyati, metodlari va samaradorlik jihatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

"Tarbiya" fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodililik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Inson jamiyatda farovon yashashi uchun u yaxshi ta'lif-tarbiya korgan bo'lishi kerak. Zero, yurtbosimiz ham "Yoshlarimizning mustaqil

fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlaydilar.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish quyidagilarni tashkil qiladi: Birinchidan, o'qituvchilar o'quvchilar bilan muhokama qilish va ulardan o'quv usullarining samarali ishlayotganini o'rganish orqali foydalanishlari tavsiya etiladi. O'quvchilarning qanday o'rganishganlarini bilish va ulardan ma'naviyatli foydalanishga intilish yordam beradi. Ikkinchidan, kompyuter texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan qoniqarli foydalanish, o'quvchilarни interaktiv ta'limgarayonida qatnashish va ularni yangi ma'lumotlarga o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Uchinchidan, o'quvchilarning o'z o'zlarini o'rganish va o'qish usullarini boshqarishga imkon beruvchi mudhish-fan metodikasi ishlatish tavsiya etiladi. Bu, o'quvchilarni o'zlashtirish va o'rganishga qo'shimcha ta'sir qiladi. To'rtinchidan, o'quvchilarni amaliyotlar yaratishga va o'quv materialini amaliyotlar orqali o'rganishga rag'batlantirish yordamida ta'limgarayonida ko'proq interaktiv va amaliy usulga o'tkazilishi taqdim etiladi. Beshinchidan, o'quvchilar orasida jamoaviy va guruh ishslashni ta'limgarayonida qo'llash yordamida ularni bir-birlari bilan o'z fikrlarini o'zlashtirish va o'rganishni oshirishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvning mohiyati va zarurati

Innovatsion yondashuv ta'limgarayonida ilg'or metod va texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Tarbiya fanida bu, o'quvchilarning faqat bilim olishiga qaratilgan yondashuvdan chiqib, ularda ahloqiy qadriyatlarni shakllantirish, jamoa bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish va mas'uliyat hissini tarbiyalashga yo'naltiriladi.

Tarbiya fani darslarida innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi:

- O'quvchilarni ahloqiy-mehnat qadriyatlari bilan tanishtirish;
- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limgarayonida berish;
- Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- Jamoaviy ishslash madaniyatini oshirishdir.

Masalan, odatiy ma'ruza shaklida o'tiladigan mavzularni interfaol o'yinlar, muhokamalar, loyiha ishlariga aylantirish orqali o'quvchilarning ishtiropi faollashadi, ular o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar. Tarbiya fanini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish

Innovatsion yondashuvning eng samarali usullaridan biri bu interfaol metodlarni qo'llashdir. Quyida ushbu metodlarning ayrim turlari keltirilgan: Interfaol o'yinlar va rolli o'yinlar

O'quvchilar "Tarbiya" fanidagi ma'lum bir mavzuni rolli o'yin shaklida o'rganishi mumkin. Masalan, "Oilaviy munosabatlar" mavzusida o'quvchilar turli rollarni ijro etib, oila a'zolari o'rtaсидаги mas'uliyat va muloqot tamoyillarini o'rganadilar.

Kichik guruhlar bilan ishslash

O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, ularga mustaqil ravishda ma’lum bir vazifani bajarish topshiriladi. Bu ularning jamoaviy ishslash qobiliyatini rivojlantiradi va bir-biridan o‘rganishga imkon beradi.

Elektron resurslardan foydalanish

Dars jarayonida turli multimedia resurslari, video materiallar, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida tarbiyaviy mavzularni yoritish nafaqat o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Muammoli ta’lim usuli

O‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni taqdim etib, ulardan yechim topishni so‘rash tarbiya fanida dolzarb ahamiyatga ega. Masalan, “Atrof-muhitni asrash” mavzusida o‘quvchilarga muammoli holat beriladi va ular bu masalaga qanday yechim topishni muhokama qilishadi.

Tarbiya fanida texnologiyalarni qo‘llashning afzallikkleri

Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarga turli vizual va interaktiv materiallar orqali bilim olishga imkon beradi. Masalan:

- Videodarslar mavzularni jonli ko‘rinishda tushuntiradi;
- Virtual sayohatlar orqali tarixiy yoki madaniy joylar bilan tanishish imkonini beradi;
- Onlayn testlar va viktorinalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazishi mumkin. Innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilar rivojlanishidagi o‘rni.

Innovatsion metodlar o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘rgatadi. Masalan:

- Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish;
- Muloqot qilish va jamoaviy ishslash;
- Tanqidiy yondashuv va ijodkorlik;
- Mas’uliyatni his qilish.

Tarbiya fani bu borada o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlarni tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda “tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda qo‘llaniladi. Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy,

madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, mакtab, bolalar va yoshlар tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga

"Tarbiya" fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta'limning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar nafaqat mavzularni o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi, balki ularning jamiyatga foydali, mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sapayev V. Tarbiya fanini o'qitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023
- 2.M.E.Axmedova Pedagogika Darslik.T. Tibbiyat matbaa nashriyot uyi 2022 y. 207 b.
- 3.Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari.
–T.: Mehnat, 2001. -195 b.
- 4.Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. –T.: Fan, 1995. -118 b.